QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.102

OILA MUSTAHKAMLIGI OMILLARI VA ULARNING ZAIF ESHITUVCHI O‘QUVCHILARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDAGI O‘RNI

Haqberdiyev Jamoliddin Abdug‘affor o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Maxsus pedagogika” kafedrasi katta o‘qituvchisi PhD
haqberdiyevjamol1992@gmail.com
ORCID: [0000-0003-3044-625X]

Annotatsiya. Maqolada oila mustahkamligiga ta’sir qiluvchi omillar va ularni zaif eshituvchi o‘quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida inobatga olish masalalari tahlil qilingan. Oilaviy muhitni belgilovchi ijtimoiy omillar (oila a’zolarining fikrlash tarzi, muloqot madaniyati, hududiy-milliy va oilaviy an’analar) ajratib ko‘rsatilgan. Oilaning tarbiyaviy salohiyatiga ta’sir etuvchi omillar ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy, texnik-gigiyenik va demografik guruhlarga tasniflanib, har bir guruh bo‘yicha maktab-internatlarda amalga oshiriladigan pedagogik vazifalar belgilangan. Shuningdek, ota-onalar faoliyati bilan bog‘liq pedagogik omillar hamda oila ajralishiga olib keluvchi sabablar tahlil qilinib, ularning oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy ishlar mazmuni asoslangan.

Kalit so‘zlar: *oila mustahkamligi, oilaviy qadriyatlar, zaif eshituvchi o‘quvchilar, oilaviy hayotga tayyorlash, oilaning tarbiyaviy salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ota-onalarning pedagogik savodxonligi.*

ФАКТОРЫ ПРОЧНОСТИ СЕМЬИ И ИХ РОЛЬ В ПОДГОТОВКЕ СЛАБОСЛЫШАЩИХ УЧАЩИХСЯ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. В статье анализируются факторы, влияющие на прочность семьи, и вопросы их учёта в процессе подготовки слабослышащих учащихся к семейной жизни. Выделены социальные факторы, определяющие семейную среду (образ мышления членов семьи, культура общения, региональные, национальные и семейные традиции). Факторы, влияющие на воспитательный потенциал семьи, классифицированы на социально-культурные, социально-экономические, технико-гигиенические и демографические, и для каждой группы определены педагогические задачи, решаемые в школах-интернатах. Проанализированы также педагогические факторы, связанные с деятельностью родителей, и причины распада семьи, обосновано содержание воспитательной работы по их профилактике.

Ключевые слова: *прочность семьи, семейные ценности, слабослышащие учащиеся, подготовка к семейной жизни, воспитательный потенциал семьи, социально-экономические факторы, педагогическая грамотность родителей.*

FACTORS OF FAMILY STABILITY AND THEIR ROLE IN PREPARING HARD-OF-HEARING PUPILS FOR FAMILY LIFE

Abstract. The article analyses the factors that influence family stability and how they should be taken into account when preparing hard-of-hearing pupils for family life. The social factors that shape the family environment are identified: the way of thinking of family members, the culture of communication, and regional, national and family traditions. The factors affecting the educational potential of the family are classified into socio-cultural, socio-economic, technical-hygienic and demographic groups, and for each group the pedagogical tasks to be carried out in boarding schools are defined. The pedagogical factors related to the activity of parents and the causes of family breakdown are also analysed, and the content of educational work aimed at their prevention is substantiated.

Keywords: *family stability, family values, hard-of-hearing pupils, preparation for family life, educational potential of the family, socio-economic factors, pedagogical literacy of parents.*

KIRISH

Bugungi kunda yoshlar o‘rtasida ajrimlar sonining ko‘pligi va ularning bir qismi oilaviy hayotga yetarli darajada tayyor emasligi jamiyat uchun dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo bo‘lib qolmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida oila institutini mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan[15]. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni ijtimoiylashtirish va mustaqil hayotga tayyorlash ham davlat siyosatining muhim yo‘nalishidir[16].

Zaif eshituvchi o‘quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash sog‘lom tengdoshlariga nisbatan ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Eshitishdagi nuqson nutqiy rivojlanish, axborotni idrok etish va shaxslararo muloqotda qiyinchiliklar tug‘diradi, natijada oilaviy rollar, munosabatlar va qadriyatlar haqidagi tasavvurlar sekin va ko‘pincha noto‘liq shakllanadi. Shu bois oila mustahkamligi va uning buzilishiga olib keluvchi omillarni ilmiy asosda aniqlash hamda ularni maktab ta’limi davridagi tarbiyaviy ishlarda inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

Maqolaning maqsadi – oila mustahkamligiga ta’sir qiluvchi omillarni tizimlashtirish va ularning zaif eshituvchi o‘quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi o‘rnini pedagogik jihatdan asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bola rivojlanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi o‘rni L.S.Vigotskiy tomonidan asoslangan bo‘lib, u nuqsonning ikkilamchi oqibatlari bolaning

[15] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-5841063

[16] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son qarori. https://lex.uz/docs/-5044711

ijtimoiy aloqalardan ajralib qolishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan[17]. B.D.Korsunskaya kar bolaning oilada tarbiyalanishi masalalarini yoritib, ota-onalarning korreksion jarayondagi faol ishtiroki zarurligini asoslagan[18]. M.V.Mironova oilaning nogironligi bo‘lgan bolaning hayot yo‘liga ta’sirini sotsiologik jihatdan tadqiq etgan[19], S.M.Watson, S.W.Henggeler va J.P.Whelan esa oilaning faoliyat ko‘rsatish xususiyatlari bilan eshitishida nuqsoni bo‘lgan yoshlarning ijtimoiy moslashuvi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganganlar[20].

Oila psixologiyasi va oilaviy hayotga tayyorlik masalalari G‘.B.Shoumarov ishlarida keng yoritilgan[21]. M.M.Arslanova imkoniyati cheklangan bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning metodologik masalalarini tahlil qilgan[22]. So‘nggi yillarda oila va oilaviy qadriyatlarning ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda o‘rganilganlik holati[23], yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixosotsial determinantlari[24] hamda oilaviy qadriyatlar va psixologik barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik[25] masalalari ham tadqiq etilmoqda.

Biroq mavjud tadqiqotlarda oila mustahkamligi omillari asosan sog‘lom yoshlar misolida o‘rganilgan bo‘lib, ularni zaif eshituvchi o‘quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida qanday inobatga olish masalasi alohida tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda psixologik-pedagogik, sotsiologik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tasniflash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Nazariy xulosalar zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalarida olib borilgan pedagogik kuzatishlar hamda o‘quvchilarning ota-onalari bilan o‘tkazilgan so‘rovnoma va suhbatlar natijalari bilan to‘ldirildi. Aniqlangan omillar ularning yosh avlodga ta’sir doirasiga ko‘ra guruhlarga ajratildi va har bir guruh uchun maktab-internat sharoitida bajariladigan pedagogik vazifalar belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oilaviy muhitni belgilovchi ijtimoiy omillar. Ijtimoiy muhit bolaning oiladagi tarbiyasiga doimiy ta’sir ko‘rsatadi: uning ayrim jihatlari tarbiya jarayonini sog‘lomlashtirsa, boshqalari oila a’zolari o‘rtasida salbiy munosabatlarni yuzaga keltirib, muhitni beqarorlashtiradi. Tahlil asosida oila mustahkamligiga ta’sir etuvchi to‘rtta ijtimoiy omil ajratildi.

[17] Выготский Л.С. Проблемы дефектологии. – М.: Просвещение, 1995. – 524 с.

[18] Корсунская Б.Д. Воспитание глухого дошкольника в семье. – М.: Просвещение, 1990. – 192 с.

[19] Миронова М.В. Влияние семьи на жизненный путь ребёнка-инвалида: автореф. дис. ... канд. социол. наук. – Екатеринбург, 2009.

[20] Watson S.M., Henggeler S.W., Whelan J.P. Family functioning and the social adaptation of hearing-impaired youths // Journal of Abnormal Child Psychology. – 1990. – Vol. 18. – P. 143–163.

[21] Шоумаров Ғ.Б. Оила психологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2000. – 256 б.

[22] Arslanova M.M. Imkoniyati cheklangan bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ayrim metodologik masalalari // Xalq ta’limi. – 2018. – № 4. – B. 128–132.

[23] Abibullaeva P. Ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda oila va oilaviy qadriyatlarning o‘rganilganlik holati // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025. – DOI: 10.5281/zenodo.17840449.

[24] Nasrullayeva A.A. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixosotsial determinantlari // Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila. – 2025. – DOI: 10.65185/mojgo.vi.177.

[25] Muminova D. Yangi O‘zbekistonda oilaviy qadriyatlar va psixologik barqarorlik: ilmiy-amaliy yondashuvlar // Наука и инновация. – 2025. – Vol. 3, № 46. – P. 112–115.

Birinchisi – oila a’zolarining fikrlash tarzi. U oilaning psixologik turmush tarzini aks ettiradi: oilaning qadriyatlari, me’yorlari va ichki motivlari uning real hayotiy sharoiti va imkoniyatlariga muvofiq yo‘naltiriladi, oila a’zolarining tafakkur uslubi esa ko‘p jihatdan kundalik turmush tarzi bilan belgilanadi. Oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit uning iqtisodiy sharoiti va moddiy ahvoliga ham bog‘liq holda shakllanadi.

Ikkinchisi – oila a’zolari va ularning yaqinlari o‘rtasidagi muloqot madaniyati. U shaxslararo aloqalarni, norasmiy munosabatlarni, empatiya va refleksiya mexanizmlarini, ota-ona va farzand o‘rtasidagi real munosabatlarning psixologik tavsifini namoyon etadi. Zaif eshituvchi bola uchun bu omil alohida ahamiyatga ega, chunki oiladagi muloqot uning nutqiy rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi.

Uchinchisi – oila yashaydigan hudud, millat va xalqning an’analari. Ko‘pmillatli jamiyatda ota-onalar farzandlarida o‘z millatiga xos ma’naviy sifatlarni shakllantirish bilan birga, boshqa millat vakillariga hurmat ruhini tarbiyalashga mas’uldir. Zaif eshituvchi o‘quvchilarga bu bilim va tushunchalarni yetkazish puxta metodik yondashuvni talab qiladi.

To‘rtinchisi – har bir oilaning o‘ziga xos an’analari. Ular oila a’zolarining o‘zini tutish odobi va uyda o‘rnatilgan qoidalarga rioya etishida namoyon bo‘ladi. Shu bois zaif eshituvchi o‘quvchilarni kelajakdagi turmush o‘rtog‘i oilasidagi tartiblarni bilish va hurmat qilishga tayyorlash ham maqsadga muvofiq.

Oilaviy qadriyatlar va er-xotin munosabatlariga ta’sir etuvchi omillar. A.M.Rogova oilaviy qadriyatlar shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni uch guruhga ajratadi: “1. Oila rivojlanishining umumjahon tendensiyalari; 2. Hudud iqtisodiy islohotlari sharoitlariga xos bo‘lgan omillar; 3. Turli yoshlar guruhlariga xos bo‘lgan omillar”[26]. Hozirgi davrga xos jahon tendensiyalari sifatida individuallashuvning kuchayishi, shaxsiy manfaatlarning oila manfaatlaridan ustun qo‘yilishi, mustaqillik va avtonomlikka intilish kabi jarayonlarni ko‘rsatish mumkin. Axborot vositalari orqali turli qarashlar bilan tanishgan yoshlarda an’anaviy oilaviy qadriyatlarga munosabat o‘zgarishi mumkinligi bois, bu masala zaif eshituvchi o‘quvchilar bilan ishlashda ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim.

N.N.Uvarova er va xotin o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni ta’minlovchi omillarni quyidagicha ko‘rsatadi: “1) Turmush o‘rtoqlarning qarashlar, o‘zi va turmush o‘rtog‘i va ijtimoiy dunyo to‘g‘risidagi fikrlaridagi o‘xshashliklar; 2) Har bir turmush o‘rtoq tomonidan afzal ko‘rilgan muloqot, shu jumladan o‘zini tutish modelidagi o‘xshashliklar; 3) Bir-biriga yaqin bo‘lgan umumiy madaniy daraja, ijtimoiy yetilganlik darajasi va turmush o‘rtoqlarning qadriyatlar tizimining mos kelishi”[27]. N.V.Xaxina, A.I.Antonov, Z.A.Rasulova va Y.V.Jilsov ishlarida maktabgacha ta’lim muassasasi, maktab va boshqa ijtimoiy institutlarga nisbatan bola shaxsining shakllanishida oilaviy tarbiyaning ustuvorligi, bunda oiladagi munosabatlar mazmuni va tarbiyaning hissiy-emotsional boyligi hal qiluvchi ekanligi ta’kidlanadi[28].

[26] Рогова А.М. Семейные ценности как фактор формирования личности. – М.: Наука, 2010. – 184 с.

[27] Уварова Н.Н. Социально-психологические аспекты семейных ценностей. – СПб.: Питер, 2012. – 220 с.

[28] Хахина Н.В. Психология семейного воспитания. – М.: Просвещение, 2008. – 224 с.; Антонов А.И. Семейная педагогика: теория и практика. – СПб.: Питер, 2010. – 192 с.; Расулова З.А. Психологические аспекты формирования личности в семье. – Ташкент: Фан, 2012. – 168 с.; Жилсов Ю.В. Влияние семейной среды на развитие ребенка. – М.: Академия, 2009. – 200 с.

Oilaning tarbiyaviy salohiyatini belgilovchi omillar. Oilaning tarbiyaviy imkoniyati deganda bola shaxsining muvaffaqiyatli rivojlanishini ta’minlovchi shart-sharoitlar majmui tushuniladi[29]. Unga oilaning yashash hududi, tarkibi, moddiy ta’minlanganligi, ijtimoiy-psixologik mikromuhiti, ota-onalarning madaniy saviyasi, an’ana va qadriyatlari, katta a’zolarning ta’lim darajasi kabi omillar ta’sir etadi. Biroq bu omillarning hech biri alohida holda tarbiya sifatini belgilab bera olmaydi; ular yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘lgandagina oilaning tarbiyaviy salohiyatini aks ettiradi. Tadqiqotda ushbu omillar shartli ravishda to‘rt guruhga ajratildi va ularning har biri bo‘yicha maktab-internatlarda bajariladigan pedagogik vazifalar belgilandi (1-jadval).

1-jadval

Oilaning tarbiyaviy salohiyatini belgilovchi omillar va ularga mos pedagogik vazifalar

Omillar guruhi	Mazmuni	Zaif eshituvchi o‘quvchilar bilan ishlashdagi pedagogik vazifalar
Ijtimoiy-madaniy	Ota-onalarning farzand tarbiyasiga munosabati (mas’uliyatli, o‘rtacha, beparvo), ma’lumot darajasi va pedagogik madaniyati; oiladagi psixologik muhit	Ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish; surdopedagog bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish; nizoli muhitning salbiy ta’sirini korreksiyalash
Ijtimoiy-iqtisodiy	Oilaning moddiy resurslari, ota-onalarning bandligi, oila byudjetini rejalashtirish darajasi	Moliyaviy savodxonlik, mehnat va halol daromad haqidagi tasavvurlarni shakllantirish; erta yoshdagi nutqiy rivojlanishga e’tiborni kuchaytirish
Texnik-gigiyenik	Turar-joy sharoiti, uyning tartibi, xavfsizligi va sanitariya-gigiyena talablariga mosligi	Tozalik, tartib va xavfsizlik ko‘nikmalari; maishiy ta’mir va mehnat malakalarini texnologiya darslari va tarbiyaviy mashg‘ulotlarda shakllantirish
Demografik	Oilaning tipi va tuzilishi: to‘liq yoki noto‘liq, bir farzandli yoki ko‘p farzandli, oddiy yoki murakkab	Ona va otaning oiladagi rollari, farzand tarbiyasidagi mas’uliyat haqidagi tasavvurlarni shakllantirish; noto‘liq oilalardagi o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash

Ijtimoiy-madaniy omil. Kuzatishlar ota-onalarning zaif eshituvchi farzandi tarbiyasiga munosabati mas’uliyatli, o‘rtacha yoki beparvo shaklda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Mas’uliyatli ota-onalar farzand tarbiyasini ijtimoiy burch deb biladi, maktabgacha ta’lim bilan uzviylikni ta’minlash va surdopedagog bilan hamkorlik zarurligini chuqur anglaydi. Aksincha, oiladagi nizoli va beqaror muhit, psixologik bosim va mehr-yaqinlikning yetishmasligi eshitish nuqsoni bilan bog‘liq qiyinchiliklarni yanada murakkablashtirib, bolaning ijtimoiy moslashuvini qiyinlashtiradi. Ota-onalar bilan o‘tkazilgan so‘rovnomalar zaif eshituvchi

[29] Захаров А.И. Психология семейных отношений и воспитания детей. – М.: Педагогика, 1982. – 224 с.

bolaning oiladagi tarbiyasiga ota-onalarning ma’lumot darajasi bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatdi. Bu bolaning oilaviy hayotga tayyorligi ota-onalarning pedagogik savodxonligiga bog‘liq, degan xulosani asoslaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omil. Zaif eshituvchi bolaning nutqiy rivoji, salomatligi, qo‘shimcha ta’lim va reabilitatsiya xizmatlaridan foydalanishi muayyan moddiy xarajatlarni talab etadi, shu bois oilaning iqtisodiy imkoniyatlari muhim omil hisoblanadi. Og‘ir iqtisodiy sharoit onaning uydan tashqarida ko‘proq band bo‘lishiga olib keladi. Bu bola mustaqilligi va tashabbuskorligini oshirishi mumkin bo‘lsa-da, ayniqsa, uch yoshgacha bo‘lgan davrda bola bilan muntazam shug‘ullanilmasligi nutqiy zaxiraning yetarli shakllanmasligiga sabab bo‘ladi. Nutqiy zaxiraning kamligi esa aqliy rivojlanish, maktab ta’limi sifati va keyinchalik kasb egallashga salbiy ta’sir qilib, bitiruvchining oilaviy hayotga iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan tayyor emasligiga olib keladi.

Texnik-gigiyenik omil oilaning yashash joyi, uy-joyning saranjom-sarishtaligi, xavfsiz jihozlanganligi va sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilishida namoyon bo‘ladi. Bu omil orqali zaif eshituvchi o‘quvchilarga pokiza va tartibli uyda osoyishtalik hukm surishi, tozalikning salomatlikka ijobiy ta’siri haqidagi tushunchalar singdiriladi, qimmatbaho buyumlar emas, balki ozoda va qulay muhit qadrli ekanligi anglatiladi. Uy-joyni asrash uchun o‘quvchilarda maishiy ta’mir va mehnat malakalarini shakllantirish lozim.

Demografik omil oilaning tipi va tuzilishini qamrab oladi. Tarbiya uchun eng maqbul sharoit qaysi turdagi oilada yaratilishi haqidagi savolga yagona javob yo‘q: tarbiya samaradorligi ko‘proq oiladagi mehr-oqibat, o‘zaro hurmat va mas’uliyatga bog‘liq. Shunga qaramay, farzand tarbiyasiga ham ona, ham ota mas’ul bo‘lgan to‘liq oila muvaffaqiyatli tarbiya garovi hisoblanadi, noto‘liq oilada esa barcha mas’uliyat bir boquvchi zimmasiga tushadi.

Pedagogik omillar. Yuqoridagilar bilan bir qatorda ota-onalar faoliyati bilan bog‘liq uchta pedagogik omil ajratildi: ota-onalarning “tarbiyali shaxs” etaloni haqidagi qarashlari (ko‘pchilik ota-onalar uni shaxsiy tajribasidan kelib chiqib talqin qiladi va asosiy e’tiborni axloqiy sifatlarga qaratadi); ota-onalarda muloqot madaniyatining shakllanganligi; milliy qadriyatlar va urf-odatlarga munosabat. Ota-onalar bola tarbiyasiga oid ma’lumotlarni ijtimoiy tarmoqlardan ham o‘rganishi mumkin, biroq ularni zaif eshituvchi bolaga moslashtirib yetkazish uchun metodik ko‘rsatmalar zarur. Oila mustahkamligida turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi ishonch, o‘zaro tushunish, xarakterlarning muvofiqligi, qiziqishlar umumiyligi va majburiyatlarning adolatli taqsimlanishi yetakchi o‘rin tutishi xorijiy tadqiqotlarda ham qayd etilgan[30].

Oila ajralishiga olib keluvchi omillar. Amaliyotda oila ajralishining asosiy sababi sifatida turmush o‘rtoqlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi, hayotiy tajribaning yetishmasligi, murosaga kela olmaslik va muammoli vaziyatda bosiqlikni namoyon eta olmaslik kuzatiladi. Ishsizlik va moddiy qiyinchiliklar ham oila buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, quyidagi psixoemotsional va ijtimoiy sabablar ajratildi: ichkilikbozlik; oiladagi majburiyatlarning taqsimlanishiga rozi bo‘lmaslik va o‘z vazifasini bajarmaslik; dangasalik;

[30] Kulikova T.I. The value of family and parenthood in the eyes of modern students // Psychological Studies. – 2025. – Vol. 16, № 2. – P. 415–433. – DOI: 10.12731/2658-4034-2025-16-2-756.

oilaviy va nikoh munosabatlariga tayyor bo‘lmaslik; er va xotinning bir-biriga ortiqcha talablari; ehtiyoj va imkoniyatlar o‘rtasidagi muvozanatni to‘g‘ri baholay olmaslik. Bu sabablarni zaif eshituvchi o‘quvchilarga ularning yoshi va nutqiy imkoniyatiga mos shaklda tushuntirish ularda bunday holatlarga nisbatan qarshi pozitsiyani shakllantiradi.

MUHOKAMA

Tahlil natijalari zaif eshituvchi o‘quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashda yetakchi omil bola kamol topayotgan oila ekanligini ko‘rsatadi: aynan u o‘sib ulg‘aygan oila modeli uning ongida oila haqidagi tasavvurning shakllanishiga asos bo‘ladi. Agar bu model salbiy belgilarga ega bo‘lsa, maktab-internat sharoitida maqsadli korreksion-pedagogik choralar ko‘rilishi talab etiladi. Bu xulosa oila faoliyati va eshitishida nuqsoni bo‘lgan yoshlarning ijtimoiy moslashuvi o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi tadqiqotlar natijalariga mos keladi.

Zaif eshituvchi bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash ishlarini ijtimoiylashtirish jarayoni bilan integratsiya qilish zarurati quyidagi holatlar bilan asoslanadi. Birinchidan, mustaqil hayot uchun zarur hayotiy ko‘nikmalar tabiat, matematika, ona tili, texnologiya kabi fanlardan egallangan bilimlarga tayanadi. Ikkinchidan, o‘quvchilarning olamni anglashi nutq orqali kechadi: nutqqa o‘rgatish “Eshitish idrokini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish” mashg‘ulotlari, nutq o‘stirish, ona tili va o‘qish darslarida, egallangan til me’yorlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llash esa tarbiyaviy mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi. Uchinchidan, ayrim oilalarda bolani haddan tashqari avaylash yoki ota-onalarning uquvsizligi tufayli muloqotga o‘rgatish chetda qoladi va bu vazifani pedagoglar bajarishiga to‘g‘ri keladi. Shu bois zaif eshituvchi bolalarning ta’lim bilan erta qamrab olinishi ularni ijtimoiylashtirishda va mustaqil hayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Oila mustahkamligi oila a’zolarining fikrlash tarzi, muloqot madaniyati, hududiy-milliy va oilaviy an’analar kabi ijtimoiy omillar, shuningdek, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy, texnik-gigiyenik va demografik omillarning yaxlit ta’sirida shakllanadi. Bu omillarning hech biri alohida holda oilaning tarbiyaviy salohiyatini belgilab bermaydi.

2. Omillarni guruhlarga ajratish maktab-internatlarda zaif eshituvchi o‘quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha metodik ishlarni rejalashtirish va tavsiyalarni manzilli belgilash imkonini beradi.

3. Zaif eshituvchi bolaning oilaviy hayotga tayyorligi ko‘p jihatdan ota-onalarning pedagogik savodxonligi va erta yoshdagi nutqiy rivojlanishga bog‘liq. Shu bois ota-onalar uchun moslashtirilgan metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqish va ular bilan tizimli ishlash zarur.

4. Tarbiyaviy mashg‘ulotlarda o‘quvchilarga oila ajralishiga olib keluvchi sabablarni ularning imkoniyatiga mos tarzda tushuntirish, mehnat, bilim olish, halollik va qadriyatlarni hurmat qilish orqali farovon oila qurish mumkinligini ta’limning ilk bosqichidanoq singdirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son qarori. https://lex.uz/docs/-5044711

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-5841063

3. Abibullaeva P. Ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda oila va oilaviy qadriyatlarning o‘rganilganlik holati // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025. – DOI: 10.5281/zenodo.17840449.

4. Arslanova M.M. Imkoniyati cheklangan bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ayrim metodologik masalalari // Xalq ta’limi. – 2018. – № 4. – B. 128–132.

5. Kulikova T.I. The value of family and parenthood in the eyes of modern students // Psychological Studies. – 2025. – Vol. 16, № 2. – P. 415–433. – DOI: 10.12731/2658-4034-2025-16-2-756.

6. Muminova D. Yangi O‘zbekistonda oilaviy qadriyatlar va psixologik barqarorlik: ilmiy-amaliy yondashuvlar // Наука и инновация. – 2025. – Vol. 3, № 46. – P. 112–115.

7. Nasrullayeva A.A. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixosotsial determinantlari // Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila. – 2025. – DOI: 10.65185/mojgo.vi.177.

8. Watson S.M., Henggeler S.W., Whelan J.P. Family functioning and the social adaptation of hearing-impaired youths // Journal of Abnormal Child Psychology. – 1990. – Vol. 18. – P. 143–163.

9. Антонов А.И. Семейная педагогика: теория и практика. – СПб.: Питер, 2010. – 192 с.

10. Выготский Л.С. Проблемы дефектологии. – М.: Просвещение, 1995. – 524 с.

11. Жилсов Ю.В. Влияние семейной среды на развитие ребенка. – М.: Академия, 2009. – 200 с.

12. Захаров А.И. Психология семейных отношений и воспитания детей. – М.: Педагогика, 1982. – 224 с.

13. Корсунская Б.Д. Воспитание глухого дошкольника в семье. – М.: Просвещение, 1990. – 192 с.

14. Миронова М.В. Влияние семьи на жизненный путь ребёнка-инвалида: автореф. дис. ... канд. социол. наук. – Екатеринбург, 2009.

15. Расулова З.А. Психологические аспекты формирования личности в семье. – Ташкент: Фан, 2012. – 168 с.

16. Рогова А.М. Семейные ценности как фактор формирования личности. – М.: Наука, 2010. – 184 с.

17. Уварова Н.Н. Социально-психологические аспекты семейных ценностей. – СПб.: Питер, 2012. – 220 с.

18. Хахина Н.В. Психология семейного воспитания. – М.: Просвещение, 2008. – 224 с.

19. Шоумаров Ғ.Б. Оила психологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2000. – 256 б.